

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida, 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

27 903

112,3 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

26 692

112,5 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022-yil yanvar-dekabr oylarida)


4 472

99,6 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashтирilган тизими bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar- dekabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar- dekabr oylarida, birlikda)




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,3** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chovachilik,
ovchilik va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi

■ Baliqchilik xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


7



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxonasi va
tashkilotlarning
umumiyligi o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan **13,1** foizga
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 3 633 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,1 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 13,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,6 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 27,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,0 %) o'sishi kuzatildi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 91,7 % ni (jami sanoatdagi ulushi 0,9 %) tashkil etgan va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 12,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,5 %) tashkil etdi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,0 foizga oshdi**



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida



- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
- fugorolik obyektlarini qurish
- bino va inshootlar qurish

2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 501 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,0 % ga oshdi.


Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 103,3 % ni (jami qurilishdagi ulushi 59,6 %), fugorolik obyektlarini qurish - 35,3 % ni (jami qurilishdagi ulushi 13,6 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 95,2 % ni (jami qurilishdagi ulushi 26,8 %) tashkil etdi.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,9** foizga oshdi*



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



17,0
foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 7 434 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,9 % ga oshdi.

Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 11,8 % ga (jami savdodagi ulushi 67,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 29,1 % ga (jami savdodagi ulushi 23,4 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan 27,1 % ga (jami savdodagi ulushi 9,2 %) o'sishidir.



■ Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

447



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

17



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


10



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,2 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



12,4
foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

11




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,4** foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



9,6
foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



107
yashash bo'yicha xizmatlar



1 390
Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2023-yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 497 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,4 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili - oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 9,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,9 %) o'sgan va yashash bo'yicha xizmatlarning 107,0 % ni (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,1 %) tashkil qiladi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 2 324 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 274 ga yoki 13,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 172 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 240 ga yoki 12,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 391 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 79,0 % ni tashkil etgan.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 17 827 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 466 ga yoki 16,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 17 074 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 391 taga yoki 16,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 261 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,6 % ni tashkil etgan.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

14



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 198 tani tashkil etib, ulardan 196 tasi yoki 98,9 % faoliyat ko'rsatmoqda.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 17 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

15



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

16


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Qoraqalpog'iston Respublikasi	196	109	87
tumanlar:			
Amudaryo	7	3	4
Beruniy	10	4	6
Bo'zatov	7	7	0
Qorao'zak	11	7	4
Kegeyli	6	5	1
Qo'ng'irot	13	9	4
Qonliko'l	7	3	4
Mo'ynoq	39	24	15
Nukus	9	4	5
Taxiatosh	9	2	7
Taxtako'pir	4	2	2
To'rtko'l	9	6	3
Xo'jayli	4	2	2
Chimboy	5	4	1
Shumanay	3	1	2
Ellikqal'a	6	3	3
Nukus sh.	47	23	24

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 47 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 24,0 %), Mo'ynoq 39 ta (19,9 %), Qo'ng'irotda 13 ta (6,6 %), Qorao'zak 11 ta (5,6%), Beruniy 10 ta (5,1%), Nukus tumani va To'rtko'l tumanlarida 9 ta (4,6 %), Taxiatosh 9 ta (4,6 %), Qonliko'l va Bo'zatovda 7 ta (3,6 %), Kegeyli va Ellikqal'a tumanlarida 6 ta (3,1 %) ni tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

17




2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 27 903 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi, Nukus shahri (27,7 %), To'rtko'l (9,8 %), Beruniy (8,5 %), Amudaryo (7,6 %), Ellikqal'a (6,4 %), Qo'ng'irot (6,0 %), Xo'jayli (5,4 %), Nukus (4,1 %), Chimboy (4,2 %), Kegeyli (3,2 %), Taxiatosh (3,1 %), Qorao'zak (2,8 %), Mo'ynoq (2,6 %), Qonliko'lida (2,7 %), Shumanay tumanlarida (2,4 %), Taxtako'pir (1,9 %) va Bo'zatov (1,6%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar- dekabr oylarida, birlikda)


2022- yilning yanvar- dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 4 472 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi Nukus shahrida (22,7 %), To'rtko'l (8,8 %), Beruniyda (9,0 %), Ellikqal'a (8,1 %), Amudaryo (8,0%), Qo'ng'irot (7,6 %), Xo'jayli (5,2 %), Kegeylida (3,7 %), Chimboy (4,6 %), Taxiatosh (3,0 %), Nukus (3,3 %), Qorao'zak (3,1 %), Taxtako'pir (2,8 %), Mo'ynoqda (2,8 %), Qonliko'l (2,7 %), Shumanayda (2,8 %), Bo'zatov (1,8 %) tumanlari ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

18



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 17 074 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi, Nukus shahrida (32,0 %), To'rtko'l (9,8 %), Beruniy (7,7 %), Amudaryo (7,1 %), Qo'ng'iroq (5,7 %), Xo'jayli (5,6 %), Nukus (4,7 %), Ellikqal'a (4,5 %), Chimboy (4,4 %), Kegeylida (3,5 %), Mo'ynoq (2,9 %), Qorao'zak (3,0 %), Taxiatosh tumanida (2,5 %), Bo'zatov (1,8 %), Qonliko'l (1,8 %), Shumanay (1,7 %), Taxtako'pir (1,3%) tumanlari hissasiga tegishli.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma turidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275 - son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Statistik registrlarni yuritish bo'lumi
Tel.: 61 222-78-37